“Ilm va ayol: barqaror jamiyat sari” mavzusida davra suhbati

2026 13 Fevral

“Uzbekistan Airways” Aksiyadorlik jamiyatining O‘quv-mashg‘ulot markazida aviakomapniya ayol xodimalari va Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazining Ta’lim texnologiyalari kafedrasi dotsentlari ishtirokida “Ilm va ayol: barqaror jamiyat sari” mavzusida davra suhbati tashkil etildi.



Mazkur davra suhbatida Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish markazining Ta’lim texnologiyalari kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi Usmanova Shoira Djumabekovna hamda dotsent, pedagogika fanlari nomzodi Toshbekova Moxira Xasanovnalarning ishtirok etdilar.



Tadbirda olimalarning jamiyat hayotida tutgan o‘rni, ilm-fanga katta hissa qo‘shib kelayotgan xotin-qizlarning ibratli hayot yo‘li, O‘zbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan olimalar haqida so‘z yuritildi.